

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI




SHARQ VA G‘ARB FALSAFASIDAGI ANTROPOLOGIK
MUAMMOLAR

FANINING O‘QUV DASTURI


Bilim sohasi: 200 000 – San‘at va gumanitar fanlar
Ta‘lim sohasi: 220 000 – Gumanitar fanlar (tillardan
tashqari)
Mutaxassislik: 70220502 – Sharq falsafasi va madaniyati

TOSHKENT – 2025

Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti dekani:  Askarov M.M.

Sharq falsafasi va germenevtika kafedrası mudiri:  Sulaymonov J.B.

ARM boshlig'i

 Yuldasheva M.M.

Fan/modul kodi FAM1206	O'quv yili 2025-2026	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
		Sharq va G'arb falsafasidagi antropologik muammolar	72	108
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – magistrantlarda qadimgi davr, o'rta asrlar, yangi va eng davr Sharq va G'arb falsafasida inson muammosining mazmuni va mohiyati bo'yicha nazariy bilimlarni o'rgatish va amaliyotda tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – magistrantlarga falsafiy antropologiya shakllanishining asosiy davrlari; Sharq va G'arb falsafasida inson muammosi, ularning qiyosiy tahlili, inson mohiyatining zamonaviy falsafiy talqiniga oid mavzularning mazmuni va mohiyatini yoritib berish.</p> <p>Mazkur fan dasturi tan olingan reytinglarda Rankings by subject bo'yicha birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Leiden universiteti (ARWU 111) tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi. https://www.universiteitleiden.nl/en/education/masters</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. "Sharq va G'arb falsafasidagi antropologik muammolar" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.</p> <p>Falsafiy antropologiya falsafaning alohida yo'nalishi sifatida. Falsafiy antropologiya – inson mohiyati to'g'risidagi fan. Sharq va G'arb falsafasida inson muammosi. Qadim zamonlardan boshlab inson mohiyatini tushuntirib berishda</p>			

bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki paradigma mavjudligi: insonning xudo tomonidan yaratilganligi g'oyasi va tabiiy-tarixiy tadrijiy (evolyusion) rivojlanish g'oyasi. Kreasionizm va evolyusionizm. Zamonaviy antropogenez gipotezalari. Inson tabiatining noyobligi g'oyasi.

2-mavzu. Qadimgi Hindistonda inson haqidagi bilimlarning paydo bo'lishi

Hindistonda inson to'g'risidagi dastlabki falsafiy fikrlarning miloddan avvalgi XII-VII asrlarda Vedalarda shakllanganligi. Unda bayon qilingan inson to'g'risidagi falsafiy fikrlarning mifologik-diniy xarakteri. Vedalarning yakunlovchi qismi Upanishadlarda koinot bilan odam orasidagi o'zaro aloqadorlik haqidagi falsafiy fikr-mulohazalar. Undagi jonning aylanma harakati, uning o'lmasligi, abadiyligi haqidagi qarashlar.

Jaynizm maktabining karma konsepsiyasi, uning fundamental xususiyati: inson amaliy faoliyatining hal qiluvchi ahamiyati.

Inson hayotining ma'nosi haqidagi dastlabki fikr-mulohazalarni, noortodoksal oqimga mansub bo'lgan buddaviylik, lokayatada talqini.

3-mavzu. Qadimgi Xitoy falsafasida inson muammosining talqini

Inson to'g'risidagi dastlabki fikr-mulohazalarning qadimgi Xitoy madaniy merosining toji xisoblangan uch asosiy kitob: "Ashulalar kitobi" ("Shi szin"), "O'zgarish kitobi" ("I szin"), "Tarix kitobi"da o'z aksini topganligi.

Qadimgi Xitoy manbalarida odamzot hayotida koinot bilan oqilona, uyg'un munosabatda bo'lishning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi. O'zaro uyg'unlikning inson xulq-atvorida, xatti-harakatida, rasm-rusumlari, urf-odatlarida yaqqol namoyon bo'lishi.

Miloddan avvalgi VIII-VI asrlarda Yan In szi maktabi namoyandalari tomonidan ilgari surilgan inson to'g'risidagi falsafiy qarashlar.

Qadimgi dao-sizm ta'limotida inson muammosi.

Konfusiy (mil.av.551-479yy.) va uning izdoshlari falsafasida inson masalasining talqini.

4-mavzu. Qadimgi Bobil va Misrda inson haqidagi tasavvurlarning shakllanishi

Miloddan avvalgi IV mingyillikning oxiri – III-mingyillikning boshida qadimgi Bobil va qadimgi Misr madaniyati o'z taraqqiyotining yuqori nuqtasiga erishgani. Bu davlatlarda astronomiya, kosmologiya, matematikaga oid ilk bilimlar bilan birga asotiriy tafakkurning rivojlanganligi. Qadimgi Bobil va

misrliklarning inson tabiati, taqdiri, o'limi va narigi dunyodagi hayoti haqidagi tasavvurlari.

5-mavzu. Qadimgi Eron va Turonda inson to'g'risidagi qarashlar

Inson to'g'risidagi qarashlarni miloddan avvalgi VII-VI asrlarda O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlari, xususan Eron va Turonda keng tarqalgan Zardo'shtiylik diniy-falsafiy ta'limotida qo'yilishi. Inson iymon-e'tiqodining ezgu fikr, ezgu so'z hamda ezgu amalga tayanishi kerakligi. Hayotning mohiyati qarama-qarshi kuchlar, xususan yaxshilik bilan yomonlik, yorug'lik bilan zulmat orasidagi kurashga asoslanganligi.

6- mavzu. "Qur'oni Karim"da inson masalasi

"Qur'oni Karim"da insonning yaratilishi, jismi bilan ruhiyati o'rtasidagi aloqadorlik, hayot va o'lim masalalari.

Hadisshunoslikda inson ma'naviy qiyofasining iymon-e'tiqodi bilan bog'liq holda qaralganligi. Hadislarda nafaqat musulmon ma'naviy madaniyatining, balki – insonparvarlik va insoniylikning turli qirralari: mehr-oqibat, ochiq ko'ngillik, saxiylik, ota-ona, qavm-qarindoshlarni hurmat qilish, yetim-esirlarga muruvvat, faqir-bechoralarga himmat, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollik, turli xalqlarning o'zaro do'stu birodar, tinch-totuv yashashlari kabi eng buyuk umuminsoniy qadriyatlarining aks etishi.

7-mavzu. Islom falsafasida inson borlig'i muammomosining talqini

Mutakallimlik, mu'taziliylik, tabiiyunchilik va tasavvuf ta'limotlarida inson masalasining qo'yilishi.

Kalom ilmining rivojiga katta hissa qo'shgan olimlar Abu al-Hasan al-Ash'ariy asos solgan ash'ariya va Abu Mansur al-Moturidiy yaratgan moturidiya maktablari ta'limotlarida inson muammosi talqini.

Abu Nasr Forobiy, Abdullo Rudakiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ibn Ro'shd inson borlig'i, xususan, uning tanasi bilan ruhi, inson va u yashayotgan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, insonning insoniyligini namoyon qiluvchi fazilatlar, xislatlar va ularning shakllanish jarayoni muammolarining nazariy jihatdan tahlil etilishi.

Umar Hayyom, Mahmud Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Burhoniddin Marg'imony, Sa'diy Sheroziy, Jaloliddin Rumiy asarlarida inson muammosining talqini.

8-mavzu. Tasavvufda inson ruhiy-ma'naviy kamoloti konsepsiyasi

So'fiylikning g'oyaviy-nazariy asosi sifatida tasavvufda inson ruhiy-ma'naviy kamoloti haqidagi kontsepsiyaning shakllanishi. Nafs insondagi

xudbinlikning zamini ekanligi.

Muhyiddin Arabiyning "Fusus ul-hikam" kitobi, undagi inson haqidagi g'oyalar. Inson barkamolligining bosqichlari.

Kubraviya, Yassaviya, Naqshbandiya tariqatlarida inson ta'rifi. Alisher Navoiy ijodida inson muammosi.

9-mavzu. XVI-XVIII asrlarda Markazi Osiyo falsafasida inson masalasi

XVI-XVIII asrning birinchi yarmida islom falsafasida barkamol inson g'oyalarning rivojlanishi. Yusuf Qorabog'iy, Sharif Buxoriy, Inoyatulla Buxoriy, Boborahim Mashrab, So'fi Olloyor, Maxtumquli Firog'iy asarlarida inson muammosining talqini. Mirza Bedilning inson to'g'risidagi qarashlari.

10-mavzu. Yangi va eng yangi davr O'rta Osiyo falsafasida ma'rifatparvar inson siyмосi

XIX asrda O'rta Osiyoda ma'rifatparvarlikning rivojlanishi, o'tmish avlod madaniy-ma'naviy merosiga, musulmon axloq-odob qoidalariga munosabat. Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy qoloqlikdan chiqishga yo'naltirilgan harakatlar.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda jadidchilik harakatining shakllanishi va rivojlanishi. Jamiyat hayotini insonparvarlashtirish borasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Abdulvohid Burhonov, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Qodiriy, Fayzulla Xo'jaevlarning buyuk xizmatlari.

11-mavzu. Qadimgi Yunon faylasuflarining inson to'g'risidagi qarashlari

"Milet falsafa maktabi" (mil.avv.VI asr) namoyandalari Fales, Anaksimandr va Anaksimenlarning inson to'g'risidagi qarashlari. Demokrit (mil.avv. 460-370 yy.) jon inson tanasi va jonining o'zaro aloqadorligi haqida. "Eley falsafa maktabi" namoyandalari Ksenofon, Parmenid, Zenonlar inson haqida.

Sofistlarning inson to'g'risidagi fikr-mulohazalari. Sokrat insonning mohiyati haqida. Platon va Aristotelning falsafiy antropologiyasi. Epikur falsafasida inson

masalasi. Plotin (205-275 yy.) va neoplatonizm vakillarining inson to'g'risidagi qarashlari.

12-13-mavzu. Xristian falsafasida inson tavsifi.

Renessans davri xristian falsafasining antroposentrik xususiyati

Yevropada o'rta asr falsafasining teosentrik xususiyati. Avreliy Avgustin va Foma Akvinskiyning xristian falsafasida inson masalasi.

Renessans davri xristian falsafasining antroposentrik xususiyati. Ilm-fanning rivojlanishi. Renessans madaniyatining nafaqat dinga, balki ilm-fanning ilg'or yutuqlariga tayana boshlagani. San'atning rivojlanishi, unda inson go'zalligining ulug'lanishi. Bottichelli, Leonardo da Vinchi, Rafael asarlarida go'zal inson qiyofasining tasvirlanishi.

XV asr oxiri – XVI asr boshlarida ijtimoiy tenglikka asoslangan xristiancha gumanizm g'oyalarning shakllanishi.

14-mavzu. XVII-XVIII asrlar Yevropa falsafasida ma'rifatparvarlik g'oyalarning rivojlanishi

Yevropa ma'rifatparvarlari tomonidan Renessans davri gumanizmining rivojlantirishi. XVII asr ingliz faylasuflari Frensis Bekon, Tomas Gobbs, Jon Lokklar tomonidan inson to'g'risidagi xristian dini qarashlarining tanqidi. Inson borlig'i tabiiy va ijtimoiy tomonlarining tahlili. Tabiiy huquq haqidagi g'oyalarning ilgari surilishi.

XVIII asr fransuz ma'rifatparvar faylasuflari Volter, Kondilyak, Jan Jak Russo, Lametri, Gelvesiy, Golbax, Gelvesiy ijodida insonda axloqiy fazilatlar va intellektual qobiliyatlar shakllanishida ijtimoiy muhitning yetakchi roli, insonning hayvondan o'zining ehtiyojlarining ko'pligi, o'z ehtiyojlarni aql-zakovat yordamida boshqarish qobiliyatiga ega ekanligi bilan ajralib turishi. Ehtiyojlarni boshqarishda bilish qobiliyati, aqlning mezon bo'lib xizmat qilishi haqida.

15-mavzu. XVIII - XIX asrlarda Yevropa falsafasida inson muammosi

Klassik falsafaning insonshunoslik an'alarini shakllantirishda va rivojlantirishda nemis faylasuflari Immanuel Kant, Iogann Fixte, Fridrix Shelling, Vilgelm Gegel, Lyudvig Feyerbaxlarning xizmatlari. Kantning inson borlig'i haqidagi qarashlari. Kant tomonidan insonning o'zini-o'zi bilish jarayonining

inson faoliyati doirasiga kiritilishi, insonni olamdagi eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi.

Fixte "Men" bilan "Men emas"-ning o'zaro aloqadorligi haqida. Shelling falsafasida inson erkinligi muammolari. Georg Vilgelm Fridrix Gegel inson borlig'i, o'z-o'zini anglash muammosi va buyuk shaxslarning tarixdagi o'rni to'g'risida. Lyudvig Feyerbax falsafasida inson muammosi.

16-mavzu. XIX asrning 2-yarmi - XX asrda anticlassik falsafada inson borlig'i muammosi

XIX asrning 40-50 yillarida Yevropada anticlassik falsafa: personalizm, neopozitivizm, pragmatizm, ssiyentizm, radikalizm, simvolizm, kosmizm, ekzistensializm kabi falsafiy oqimlarning shakllana boshlanishi.

Ekzistensializm falsafasining buyuk namoyandalari daniyalik olim S.Kerkegor, germaniyalik faylasuflar A.Shopengauer, F.Nisse, O.Shpengler, rossiyalik faylasuf N.A.Berdyaevlar ijodida inson borlig'i masalasining yoritilishi.

Syoren Kerkegor tomonidan birinchilardan bo'lib falsafiy leksikonga "ekzistensiya" tushunchaning kiritilishi. A.Shopengauerning inson irodasi haqidagi ta'limoti. Fridrix Nishshening barkamol inson g'oyasi. Gusserl yaratgan intensiya tushunchasi.

Nemis ekzistensializmining shakllanishida Karl Yaspers va Martin Xaydeggerlarning xizmatlari. Ikkinchi jahon urushi yillarida fransuz yozuvchi-faylasuflari Jan Pol Sartr, Alber Kamyu, Gabriel Marsel asarlarida ekzistensialistik qarashlarning rivojlantirilishi.

XX asrning 50-yilarida ekzistensializm Angliya, Amerika, Italiya, Yaponiya, 70-yillardan sobiq Sovet Ittifoqi ziyolilari orasida keng tarqala boshlashi.

17-mavzu. XXI asr falsafiy antropologiyasida inson mohiyatining ko'p o'lchamliligi

Inson biopsixosotsial mavjudot. Antropogenez va sotsiogenez. Inson mohiyatiga oid introvertiv va ekstrovertiv yondashuvlar, postbiologizm va postsotsiologizm konsepsiyalari.

Inson tabiatining dualligi. Insonning ratsionalligi va norasial sifatlari. Inson xulq-atvorida ratsionallik va irratsionallikning namoyon bo'lishi. Inson tafakkuri, irodasi va his-tuyg'ulari.

Hayotning mazmuni va shaxs erkinligi masalasi. Inson borlig'ida o'zlikni anglashning namoyon bo'lishi. Hayot va o'lim. Suitsid va parasuitsidning oldini olishda tarbiyaning roli.

18-mavzu. Globallashuv davrida antropologik muammolarning o'ziga xos jihatlari.

Gender masalasi. Sharq xalqlari madaniyatida gender masalasiga munosabat. Gender masalasiga g'arbona yondoshuvning yoshlar ma'naviyatiga tahdidi. Shaxs faoliyatini tashkil qilishda huquq va axloq uyg'unligi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishda "shaxs-jamiat-davlat" tizimining o'zaro uyg'unligi.

III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Sharq va G'arb falsafasidagi antropologik muammolar" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Qadimgi Hindistonda inson haqidagi bilimlarning paydo bo'lishi
3. Qadimgi Xitoy falsafasida inson muammosining talqini
4. Qadimgi Bobil va Misrdagi inson haqidagi tasavvurlarning shakllanishi
5. Qadimgi Eron va Turonda inson to'g'risidagi qarashlar
6. "Qur'oni Karim"da inson masalasi
7. Islom falsafasida inson borlig'i muammosining talqini
8. Tasavvufda inson ruhiy-ma'naviy kamoloti konsepsiyasi
9. XVI-XVIII asrlarda Markazi Osiyo falsafasida inson masalasi
10. Yangi va eng yangi davr O'rta Osiyo falsafasida ma'rifatparvar inson siymosi
11. Qadimgi Yunon faylasuflarining inson to'g'risidagi qarashlari
12. Xristian falsafasida inson tavsifi.
13. Renessans davri xristian falsafasining antroposentrik xususiyati
14. XVII-XVIII asrlar Yevropa falsafasida ma'rifatparvarlik g'oyalarning rivojlanishi
15. XVIII - XIX asrlarda Yevropa falsafasida inson muammosi
16. XIX asrning 2-yarmi - XX asrda antiklassik falsafada inson borlig'i muammosi
17. XXI asr falsafiy antropologiyasida inson mohiyatining ko'p o'lchamliligi
18. Globallashuv davrida antropologik muammolarning o'ziga xos jihatlari.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar
Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;

“Sharq va G'arb falsafasidagi antropologik muammolar” fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Falsafiy antropologiya – inson mohiyati to'g'risidagi fan.
2. Insonning kelib chiqishi haqidagi tasavvurlarning shakllanishi.
3. Zamonaviy antropogenez gipotezalari.
4. Sharq falsafasida «komil inson» tushunchasi.
5. Buddaviylikda inson muammosi.
6. Konfusiy insonparvarlik (jen) haqida.
7. Konfusiy ta'limotidagi “O'rta yo'l” g'oyasining mohiyati.
8. Zardushtiylikda inson muammosi.
9. Platon va Aristotel falsafasida inson borlig'i masalasining qiyosiy tahlili.
10. Foma Akvinat falsafasida inson masalasi.
11. Kalam ta'limotida inson muammosining talqini.
12. Abu Nasr Forobiyning falsafiy qarashlarida inson muammosi.
13. Abu Rayhon Beruniyning falsafiy qarashlarida inson muammosi.

	<p>14. Abu Ali ibn Sino falsafasida inson muammosi. 15. Yusuf Xos Hojib ijodida inson muammosi. 16. Muhyiddin Arabiy inson borlig'i haqida. 17. Yassaviya, Naqshbandiya tariqatlarida inson ta'rifi. 18. Alisher Navoiy ijodida inson muammosi. 19. Tasavvuf falsafasida komil inson masalasi. 20. Ekzistensializm falsafasi va uning badiiy adabiyotda namoyon bo'lishi.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha magistrantlar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Magistrant bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • falsafiy antropologiya shakllanishining asosiy davrlari; qadimgi davr, o'rta asrlar, yangi va eng davr Sharq va G'arb falsafasida inson muammosining mazmuni va mohiyati haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>; • Sharq va G'arb falsafasida inson muammosi, ularning qiyosiy tahlili, inson mohiyatining zamonaviy falsafiy talqiniga oid <i>bilimlarga ega bo'lishi va ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</i>
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, mustaqil ta'lim bo'yicha hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish va/yoki og'zaki imtihonni topshirish.</p>
6.	<p>VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</p> <p>1. Qodirov M. Sharq va G'arb falsafasidagi antropologik muammolar. Darslik. – T., 2024.</p>

2. O'zbekiston falsafasi tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: Noshir, 2013.
1. Choriev A. Inson falsafasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'FMJ, 2006.
2. Гуревич П.С. Философская антропология. Учебное пособие. – Москва: Омега-Л., 2010. (Электронная книга).
3. Плужникова Н.Н. Философская антропология. Учебник. – Казань: Бук, 2023. (Электронная книга).

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Mirziyoyev Sh.M.. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.
6. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar uchun. –Toshkent: O'zbekiston, 2022.
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: O'zbekiston, 2018.
8. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. –T.:O'zbekiston, 2019.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi www.press-service.uz/uz/lists/view/1371
9. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi// <https://www.lex.Uz>
- 7.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida// www.press-service.uz/uz/lists/view/688
- 8.Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi (Besh tashabbus)//<http://www.uza.uz/oz/politics/prezident-veshlar-manaviyatini-yuksaltirish-ularning-b-sh-va-19-03-2019>
9. Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. –T.:Ma'naviyat, 2008.

10. Karimov I.A. O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati. – T.: O'zbekiston, 2014.
10. Po'latova D., Ruzmatova G. G'arb falsafasi tarixi. Darslik. –T.: Effekt-D, 2021.
11. Falsafa: ensiklopedik lug'at./O'zRFA I. Mo'minov nomidagi falsafa va huquq instsituti. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.
11. Степанова И.Н. Философская антропология: Проблемы, эпохи, идеи. Учебное пособие. – Курганский государственный университет. 2014. (электрон).
12. Философская антропология. Учебное пособие. Екатеринбург:Издательство Уральского университета. 2017.(электрон)

Scopusdan maqolalar

13. Ömer Ali Yıldırım. Ibn Sīnā's Debate in Shifā: Metaphysics 1/8 with Sophists and Instrumentalization of the Mind in the Face of Outside. *Cumhuriyet İlahiyat Dergisi* (2022). <https://doi.org/10.18505/cuid.1052450>
14. Chen, S. (2024). Research on the History of Chinese Philosophy and Chinese Philosophy's Creation. In: *Doing Chinese Philosophy*. Springer, Singapore. https://doi.org/10.1007/978-981-99-9840-1_3
15. Bonfiglioli, R. (2024). Philosophy of History, Morality and Human Beings. In: *Human Nature, Mind and the Self in Adam Smith's Moral Philosophy*. Palgrave Macmillan, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-56779-7_6
16. Ohashi, R. Nishitani Philosophy as the Breakthrough (*Durchbruch*) of Nishida Philosophy. *Journal East Asian Philosophy* 3, 19–37 (2024). <https://doi.org/10.1007/s43493-023-00028-1>
17. Šadić, R. (2024). Philosophy of Religious Pluralism – An Islamic Perspective. In: Koçyigit, I., Yağdı, Ş. (eds) *Interreligiöse Hermeneutik in pluralen Gesellschaften. Wiener Beiträge zur Islamforschung*. Springer VS, Wiesbaden. https://doi.org/10.1007/978-3-658-44523-2_10
18. Stepien, R.K. Prolegomena to a Buddhist philosophy of religion. *Int J Philos Relig* 94, 63–89 (2023). <https://doi.org/10.1007/s11153-023-09867-0>
19. Gabsi, Z. (2024). Sufism: Is it the Alternative Face of Islam? In: *Muslim Perspectives on Islamophobia*. Palgrave Macmillan, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-57300-2_7

Axborot manbalari	
	<p>1. www.lex.uz.</p> <p>2. www.gov.uz.</p> <p>3. www.library.ziyonet.uz.</p> <p>4. www.faylasuf.uz.</p> <p>5. http://booksss.ru/filosofiya/Slovar_Philosof.rar</p> <p>6. http://www.philosophy.ru Библиотека Института философии.</p> <p>7. http://www.krotov.info/libr_min/03_v/al/verde_00.html // Карлос Вальверде.</p>
7.	<p>Fanning o'quv dasturi "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrası tomonidan ishlab chiqilgan va 2025 yil "25" 06 dagi 20-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil "28" 06 dagi 11-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>M. Qodirov – TDSHU, "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrası professor v.b., falsafa fanlari nomzodi, dotsent.</p> <p>Sh.S.Jurayev – TDSHU, "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrası katta o'qituvchisi, PhD.</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Karimov R.R. – UzMU "Falsafa tarixi va mantiq" kafedrası professori, f.f.n.;</p> <p>Saydaliyeva N.Z. – TDSHU, "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrası dotsenti, f.f.n.</p>

df